

Mening sevimli qahramonim

Buxoro Davlat Universiteti geografiya ixtisosligi 10-1 GEO-24 guruhi

1-bosqich magistranti Nematova Xurshida Xayitovna

Bugun biz quyidagilar haqida gaplashamiz:

Mening sevimli qahramonim kim va nimaga uni tanladim?

“Jayhun ustida bulutlar” asarining muallifi

Abu Rayhon Beruniy haqida qisqacha ma’lumot

Beruniyning menga yoqqan jihatlari

Xulosa

Abu Rayhon Beruniy

Abu Rayhon Beruniy 4-sentyabr 973-yilda tavallud topgan va 1048-yilda vafot etgan. U O'rta Osiyoning eng mashhur olimlaridan biri bo'lib, ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Beruniy qadimgi dunyo va Sharq ilm-fanini chuqur o'rganib, ko'plab yangi g'oyalarni ilgari surgan.

“Jayhun ustida bulutlar” asarining muallifi

Mirkarim Osim 1907-yilda tugʻilgan. U mashhur oʻzbek yozuvchisi, tarjimon va adabiyotshunos olim va oʻzining asarlari bilan tanilgan boʻlib, oʻzbek adabiyotida muhim oʻrin egallaydi. U yoshligidan ilm-fan va adabiyotga qiziqib, tarjimonlik va yozuvchilik faoliyatini olib borgan.

Mening sevimli qahramonim

Mening sevimli qahramonim bu “Jayhun ustida bulutlar” asaridagi Abu Rayhon Beruniy obrazidir. U mehribon,ijodkor va dono odam edi. U doimo ilm olishga intilar edi.

Mirkarim Osimning “Jayxun ustida bulutlar” asari bu buyuk mutafakkir-abu Rayhon Beruniyga bag’ishlangan tarixiy qissadir.

Asarda Beruniyning yoslik yillari,ilmiy intilishi,ilmdan zavqlanishi,sifatlari va nazariyasi bayon etilgan.Uning ustozlari Abu Nasr ibn Iroq - juda ilmi donishmand inson bo’lib,Bog’dod va Shomga safarlar qilgan,kutubxanasini yunon faylasuflarining asarlari bilan boyitgan,shogirdi Beruniyga arab tili, handasa,hisob kabi ilmlarni o’rgatgan.

Beruniy obrazining asardagi tasviri

Beruniyning bilim olish jarayonlari-usturlobdan foydalanish, arabcha soʻzlarni oʻrganishi, dorivor oʻsimliklarni bilishi va ularni tahlil qilishi-hammasi asarda jonli qilib tasvirlangan. Shuningdek ustozi Abu Nasr ibn Iroqning ishtiyoqiga qarab unga tahsil berishi, moddiy yordam bilan taʼminlashi oʻziga xos tarzda asarda tasvirlangan.

Beruniyning menga yoqqan jihatlari

Xulosa

Beruniyga ergashish – bilimga intilish, haqiqatni izlash va o‘z ustida doimiy ishlashdir. Agar siz uning yo‘lidan borishni istasangiz, har kuni yangi narsalarni o‘rganing, tafakkuringizni rivojlantiring va ilmiy haqiqatga asoslangan fikrlashni odat qiling. Eng muhimi, o‘rganganlaringizni hayotda qo‘llab, atrofingizdagi odamlarga foyda keltiring.

